

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-sentabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 688 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 541 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 22 341,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,2 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 489,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 134,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 047,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 104,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 803,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	22 341,2	108,2
shaharlar		
Farg'ona	3 407,2	108,3
Qo'qon	3 045,2	108,2
Quvasoy	376,4	108,0
Marg'ilon	2 817,7	108,1
tumanlar		
Oltiariq	733,4	108,0
Qo'shtepa	410,7	107,3
Bag'dod	512,2	108,1
Buvayda	1 246,0	108,0
Beshariq	713,9	108,0
Quva	938,0	108,1
Uchko'prik	2 460,0	108,0
Rishton	508,4	108,0
So'x	650,5	106,9
Toshloq	642,9	108,1
O'zbekiston	411,1	108,0
Farg'ona	564,7	107,8
Dang'ara	491,5	108,2
Furqat	212,7	107,8
Yozyovon	301,0	107,9


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (**108,3** %), Qo'qon sh (**108,2**) va Dang'ara (**108,2**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-sentabr oylari)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati **108,2 %** ni tashkil qildi.



Hajmi, mlrd so'm

Farg'ona sh	3 407,2
Qo'qon sh.	3 045,2
Marg'ilon sh	2 817,7
Uchko'prik	2 460,0
Buvayda	1 246,0
Quva	938,0
Oltiariq	733,4
Beshariq	713,9
So'x	650,5
Toshloq	642,9
Farg'ona	564,7
Bag'dod	512,2
Rishton	508,4
Dang'ara	491,5
O'zbekiston	411,1
Qo'shtepa	410,7
Quvasoy sh	376,4
Yozyovon	301,0
Furqat	212,7

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 15,3 % bilan 3 407,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 212,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,


19 851,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,6% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,9 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 34,2 % ga o'sdi va 2 489,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


11,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,4 %), Toshloq (98,9 %) va Quvasoy (98,8 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (58,6 %), Dang'ara (13,9 %), tumanlarida kuzatildi.

11,1 %

88,9 %





Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

5 458,9 ming so'mni (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (11 041,3 ming so'm), Farg'ona (10 503,1 ming so'm) va Qo'qon (9 807,4 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-sentabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 803,9	116,6
shaharlar		
<i>Farg'ona</i>	225,1	125,9
Qo'qon	156,5	91,4
Quvasoy	40,6	109,9
Marg'ilon	185,2	100,3
tumanlar		
Oltiariq	43,5	111,5
Qo'shtepa	55,5	74,3
Bag'dod	162,3	314,8
Buvayda	209,6	104,6
Beshariq	203,3	111,8
Quva	141,7	122,8
Uchko'prik	57,2	133,0
Rishton	106,4	128,2
So'x	33,8	134,3
Toshloq	37,9	111,5
O'zbekiston	44,1	145,4
Farg'ona	26,9	91,7
Dang'ara	8,4	118,7
Furqat	1,6	94,1
Yozyovon	64,3	109,0


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-sentabr)














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**
(2024- yil yanvar-sentabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 803,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 116,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 156,8 mlrd so'mni (133,3%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 647,1 mlrd so'mni tashkil etdi (107,0 %).













2024-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 156,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (443,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>443,3 mlrd so'm</p>  <p>38,3 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>98,5 mlrd so'm</p>  <p>8,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>191,8 mlrd so'm</p>  <p>16,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>47,9 mlrd so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>74,7 mlrd so'm</p>  <p>6,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>65,0 mlrd so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>41,1 mlrd so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>36,7 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>25,2 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>25,3 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>19,2 mlrd so'm</p>  <p>1,7%</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>88,1 mlrd. so'm</p> <p>7,6 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 647,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 503,8 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 132,5 mlrd so'mni, otlar – 6,8 mlrd so'mni, parrandalar – 4,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>279,3 mlrd so'm</p>  <p>43,2 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>122,4 mlrd so'm</p>  <p>18,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>102,1 mlrd so'm</p>  <p>15,8 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>129,8 mlrd so'm</p>  <p>20,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6,8 mlrd so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,7 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,4 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,5 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,2 mlrd so'm</p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 2 013 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 011 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	12 380,5	111,3
shaharlar		
Farg'ona	195,1	104,3
Qo'qon	43,2	114,2
Quvasoy	9,4	108,7
Marg'ilon	74,5	110,6
tumanlar		
Oltiariq	16,2	110,9
Qo'shtepa	11,4	107,5
Bag'dod	9,8	106,1
Buvayda	8,8	104,2
Beshariq	14,9	109,6
Quva	19,0	109,1
Uchko'priq	17,1	103,9
Rishton	16,9	107,7
So'x	13,7	104,4
Toshloq	14,7	102,7
O'zbekiston	9,1	107,4
Farg'ona	14,9	106,8
Dang'ara	12,4	107,3
Furqat	11,9	108,3
Yozyovon	9,6	103,7

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 12 380,5 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	4 893,3	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	1555,1	31,8
Qo'qon	2183,8	44,6
Quvasoy	12,6	0,3
Marg'ilon	367,5	7,5
Tumanlar		
Oltiariq	28,1	0,6
Qo'shtepa	3,6	0,1
Bag'dod	7,5	0,2
Buvayda	16,2	0,3
Beshariq	4,1	0,1
Quva	13,1	0,3
Uchko'prik	99,3	2,0
Rishton	6,1	0,1
So'x	31,1	0,6
Toshloq	68,5	1,4
O'zbekiston	13,6	0,3
Farg'ona	4,1	0,1
Dang'ara	183,4	3,7
Furqat	19,9	0,4
Yozyovon	275,9	5,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (2 183,8 mlrd so'm), Farg'ona (1 555,1 mlrd so'm) va Marg'ilon (367,5 mlrd so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 4 893,3 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 150,7 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 145,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi – 2 742,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 3,0 m ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 15 459,6 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 14 833,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 325 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 300 tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t (36,1 m), Rishton (5,8 m) va Bag'dod (4,0 m) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	15 459,6	108,4
Shaharlar		
Farg'ona	2935,6	111,7
Qo'qon	2692,9	101,4
Quvasoy	469,8	109,9
Marg'ilon	3268,1	108,5
Tumanlar		
Oltiariq	249,5	101,2
Qo'shtepa	109,4	99,9
Bag'dod	96,2	104,0
Buvayda	413,7	106,9
Beshariq	171,6	105,5
Quva	73,1	108,2
Uchko'prik	1028,8	148,3
Rishton	59,8	115,4
So'x	10,0	60,5
Toshloq	936,9	98,2
O'zbekiston	189,1	96,6
Farg'ona	341,0	102,5
Dang'ara	318,9	100,0
Furqat	86,2	103,7
Yozyovon	51,1	95,8